O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVAЦИYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari 104
Sh.T.Abbosova
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili 108
U.K.Mamayusupov
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati 110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 113
L.S.Yuldasheva
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil 119
B.N.Eshbekov
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya transformatsiyasi 123
A.X.Borotov
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba 127
J.M.Azamov
Yangi tahrirdagi Konstitusiya va Konstitusiyaviy qonunchilikning rivojlanish marralari 132
M.Kenjayeva
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni 137
A.A.Ahrorqulov
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni 141

TARIX

O.V.Mahmudov
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari 145
T.T.Safarov
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan 154
B.X.Abdullayev
Rahima Aminovaning xotin-qizlar ijtimoylashuvidagi ilmiy izlanishlari 158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia 162
Z.Sh.Turg'unboyev
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif 166
G.X.Xasanboyeva
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni 171
A.Sharafiddinov
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi 174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi 179

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a70

UO'K: 950(575.1)

FARG'ONA VILOYATIDA RUS QISHLOQLARINING PAYDO BO'LISHI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ РУССКИХ СЁЛ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF RUSSIAN VILLAGES IN THE FERGANA REGION

Safarov Tolib Todjiyevich

Buxoro davlat texnika universiteti, "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti

Аннотация

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi hamda tugatilishi natijasida uning o'rnida tashkil etilgan Farg'ona viloyatida Rossiya imperiyasining turli hududlaridan rus millatiga mansub fuqarolardan rus qishloqlarini barpo etilishi bilan bog'liq tashkiliy jarayonlar, shuningdek, XIX asrning oxiriga kelib Rossiya imperiyasi hukumron doiralarida rus millatchiligini bosib olingan Turkiston hududlariga ko'chirish orqali rus davlatini mustahkamlash g'oyasining ildiz ota boshlashi, hamda Farg'ona viloyatiga aholini ko'chirish amaliyoti orqali o'z boshqaruv tuzilmalarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratganligi, bundan tashqari, ko'chirilgan aholini yangi joylarga joylashtirishning o'ziga xos jihatlari, "bo'sh davlat erlari" deb atalgan erlarda rus qishloqlarini barpo etish bilan bog'liq masalalarda fikr mulohaza yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются организационные процессы, связанные с созданием русских деревень из русских граждан из различных регионов Российской империи в Ферганской области, образованной на ее месте в результате завоевания и упразднения Кокандского ханства Российской империей, а также то, что к концу XIX века в правящих кругах Российской империи укоренилась идея укрепления русского государства путем переселения русского национализма на оккупированные территории Туркестана, и особое внимание уделялось укреплению своих административных структур путем переселения населения в Ферганскую область, кроме того, рассматриваются особенности переселения переселенного населения на новые места, вопросы, связанные с созданием русских деревень на так называемых "пустых государственных землях".

Abstract

This article examines the organizational processes related to the creation of Russian villages from Russian citizens from various regions of the Russian Empire in the Fergana region, which was created in its place as a result of the occupation and liquidation of the Kokand Khanate by the Russian Empire, as well as the fact that by the end of the 19th century, the idea of strengthening the Russian state by relocating Russian nationalism to the occupied territories of Turkestan began to take root in the ruling circles of the Russian Empire, and special attention was paid to strengthening their administrative structures through the practice of resettling the population to the Fergana region, in addition, the peculiarities of resettling the resettled population to new places, issues related to the construction of Russian villages on so-calledempty state lands".

Kalit so'zlar: *Rossiya imperiyasi, Qo'qon xonligi, Farg'ona viloyati, ko'chirish siyosati, ko'chmanchilar, rus qishlog'i, "bo'sh davlat erlari", uezd, volost.*

Ключевые слова: *Российская империя, Кокандское ханство, Ферганская область, переселенческая политика, кочевники, русское село, "пустующие государственные земли, уезд, волость".*

Key words*: Russian Empire, Kokand Khanate, Fergana Region, resettlement policy, nomads, Russian village, "empty state lands", uyezd, volost.*

KIRISH

Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining egallanishi hamda tugatilishi natijasida tashkil etilgan Farg'ona viloyatida rus qishloqlarini barpo etish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. XIX asrning oxiriga kelib, hukumat doiralarida rus millatchiligini keng hududiy tarqatish orqali rus davlatini mustahkamlash g'oyasi ildiz ota boshladi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston mintaqasining qo'lga kiritilishi natijasida o'lkaga tashrif buyurgan turli soha vakillari jumladan, tarixchilar, sharqshunoslar, etnograflar hamda harbiylar tomonidan o'lka xalqlarining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, etno-siyosiy hayoti haqida, ayniqsa Rossiya hukumatining o'lkaga rus tilli aholini ko'chirish masalalariga bag'ishlangan tahliliy maqolalar davriy matbuotda yoritilib 1867-yildan boshlab M.I.Mejov tomonidan turkiston to'plamida yig'ilib nashr etila boshlangan. Biz ushbu maqolada

Rossiya imperiyasi hududlaridan aholini Farg‘ona viloyatiga ko‘chirish orqali rus qishloqlarining barpo etilishi bilan bog‘liq ayrim mulohazalarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg‘ona viloyatida rus tilli aholini ko‘chirish harakatlari 1891-yilning ikkinchi yarmidan boshlandi. Shu yili etarli er-suv topolmagan, vatanlaridagi ekin erlari bog‘liq muammolar va eng asosiysi, ochlikdan aziyat chekkan Yevropa Rossiyasining sharqiy qismidagi rus dehqonlarini Turkiston o‘lkasiga ko‘chirish harakatlari boshlandi. Dastlab yangi hududlarga borishni ixtiyor qilgan omma taxminan 3 ming kishini tashkil qilgan. Ular Sirdaryo viloyati orqali Toshkentda joylashdilar. Butun ko‘chmanchilar guruhi asosan Toshkentda to‘plangan (oilalarning katta qismi hech qanday hujjaциz kelgan edi). Shunday katta to‘planish mahalliy ma’muriyat uchun katta muammolar tug‘dirgan. Chunki mahalliy hokimiyat ularni joylashtirish va oziq-ovqat bilan ta’minlashga mutlaqo tayyor emas edi. Turkistonning general gubernatori Vrevskiy ko‘chib kelganlarni Farg‘ona va Samarqand viloyatlariga yo‘naltirish taklifini bildirdi. Chunki bu erlarda ularni katta xarajaциz va hukumat uchun qiyinchilik tug‘dirmasdan joylashtirish imkoni bor edi. Shu bois, avvalombor rus qishloqlarini bog‘dorchilik va dehqonchilikka mos, ya’ni sug‘orilib turiladigan erlarda tashkil etish mo‘ljallandi.

Yangi ko‘chib kelganlar, ya’ni o‘lkaga kelgan yangi aholi sug‘orish usullarini bilmas edilar. Bu taxmin dastlab o‘lka boshqaruvida, erlarning miqdori haqida biror rasmiy ma’lumot yo‘qligi sababli paydo bo‘lgan edi. Keyinchalik esa bu fikrdan voz kechildi. Shunga qaramay, turkistonlik mahalliy aholining xo‘jaliklari, xususan Farg‘ona viloyatidagi dehqonchilik erlari juda katta maydonni egallab, har yili barqaror hosil berib kelardi. Bu erlarda rus ko‘chmanchilarining xo‘jaliklarini barpo etish maqsadga muvofiq emas edi. Chunki ular faqat katta xarajatlar evaziga yaroqli bo‘lishi mumkin edi, shu bois mahalliy aholining asrlar davomida ishlatib kelgan sug‘oriladigan erlari juda katta ahamiyat kasb etardi. Masalan, Toshkent atrofida ko‘chmanchilarni joylashtirish va boshqa joylarda ularni o‘tkazish masalalari ko‘tarilganida, Farg‘ona viloyati ma’muriyati tayyor emas edi, xuddi Sirdaryo viloyati singari. O‘sha vaqtda Farg‘onada hali bironta rus qishlog‘i yo‘q edi va bu erda rus koloniyasini barpo etish haqida hech kim o‘ylamagan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, ruslar uchun darhol joylashtirishga tayyor bo‘lgan erkin erlar yo‘q edi. Faqatgina davlat hisobidagi erlar mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha alohida tartibda qaror chiqarish talab etilardi. Shu sababli, Farg‘ona viloyatidagi harbiy gubernator general-mayor Korolkov Toshkent atrofidagi erlardan, shuningdek O‘shdan 80-90 chaqirim uzoqlikdagi erlardan foydalanishni maqsad qiladi.

1890-yildan boshlab esa Farg‘ona viloyatida “bo‘sh davlat erlari” deb ataladigan erlar e’tiborga olinib, qayta ro‘yxatga olingan edi. Lekin 1890, 1891 va 1893-yillarda Andijon uyezdidagi mahalliy aholining erlaridan voz kechish masalasi ko‘tariladi. Lekin bu erlardan voz kechishga mahalliy aholining o‘zi qarshilik qiladi, ular o‘z ekin maydonlarini tashlab, davlat zaxirasiga topshirishni istamadilar. Sabab shunda ediki, ular yangi soliqlar joriy etilishidan qo‘rqardilar. Shu bois, ular davlat tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarmay, o‘z erlarini qo‘llarida saqlab qolishga intilganlar.

Shunday qilib, 1890-yillarda Farg‘ona viloyati ma’muriyati “bo‘sh davlat erlari” masalasiga alohida e’tibor bera boshlagan. 1890, 1891 va 1893-yillarda Andijon uyezdining boy hududlarida, Farg‘ona er-soliq komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlarda, qirg‘izlar o‘z erlarini tashlab ketmaslikka, hattoki ekilgan maydonlarni ham davlat foydasiga topshirmaslikka qat’iy harakat qildilar. Buning asosiy sababi yangi erlarni qayta ro‘yxatga olib, yana soliq solinishidan qochish edi. Shu bois ular, hatto o‘z ixtiyori bilan topshirilishi kerak bo‘lgan erlarni ham zaxiraga topshirmadilar. Mahalliy aholining bu qarshiliklari tufayli, er-soliq ishlari bilan shug‘ullanuvchi nozirlar davlat uchun mo‘ljallangan erlardan foyda olishning iloji yo‘qligini tan oldilar.

Bundan tashqari, ma’muriyatning o‘zida ham muammolar mavjud edi. Turli darajadagi mansabdorlar, shuningdek qishloq xo‘jaligi va davlat mulklari vazirligining maxsus xodimlarining soni cheklangan edi. Andijon uyezdida faoliyat olib borgan er-soliq komissiyasi mahalliy aholi rad etgan erlardan foydalanish masalasini ko‘tarmagan. Farg‘ona viloyatida, umuman er masalasi o‘sha paytda juda chalkash edi. Yer-soliq komissiyasi xodimlari ishni boshlashsa-da, keyinchalik rus hukumatini qiynagan savol shu bo‘ldiki, aholi voz kechgan erlardan qanday foydalanish kerak.

Toshkentdan Farg‘ona viloyatidagi erkin erlar haqida so‘ralganda, ma’muriyat bunday erlarning mavjud emasligini bevosita aytib o‘tadi. Shunday bo‘lsa-da, Farg‘ona viloyatida aholini

ko‘chirish uchun erkin erlarni izlash ishlari olib borildi, ammo buning uchun rasmiy dastur ham mavjud emas edi. Hech kim bu erlarga rus ko‘chmanchilari kelishini tabiiyki kutmagan edi. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoridan erkin davlat erlari haqida ma’lumot so‘ralganda, Andijon uyezdi boshlig‘i polkovnik Bryanov 1891-yil oxirida javob berib, shuni ma’lum qildi: Kuqart volostida, Andijon uyezdida, Adir daryosi bo‘yida, soliq ishlari paytida qirg‘iz aholisi o‘z erlari hisobidan davlat xazinasiga topshirgan erlari mavjud. Masalan:

- Yangi-Qo‘rg‘on, umumiy 2280 desyatina (yer o‘lchov birligi),
- Amirtor tog‘ yonbag‘rida – 421 desyatina,
- Moytan-Sadich – 421 desyatina.

Biroq, ularning topshirilish sabablari quyidagicha ko‘rsatilgan edi: erlarning unumdorligi pastligi, sug‘orish imkoniyati cheklanganligi va sug‘orish ariqlarini saqlashdagi qiyinchiliklar. Shu bilan birga, Andijon uyezdining boshlig‘i Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoridan bu erlarda rus ko‘chmanchilarini joylashtirish mumkinligini tekshirishni so‘radi. Shu paytda Toshkentdan kelgan rus ko‘chmanchilari Farg‘onada joylashishni boshlaydi. 1891-yil dekabr oyining boshlarida Marg‘ilon shahri yaqinida 20 oiladan iborat bo‘lgan 72 kishi joylashib oladi. Bu Farg‘ona viloyatiga rus ko‘chmanchilarining birinchi kelishi edi (Marg‘ilonga birinchi ko‘chmanchilar 1891-yil 20-avgustda kelgan).

Ularning aksariyati dastlab xususiy shaxslarga yollanib ishladilar, chunki yangi joylarda darhol joylashish uchun hech narsa tayyor emas edi. Farg‘ona viloyati ma’muriyati 1891-yil dekabrda Turkiston general-gubernatoriga quyidagilarni ma’lum qiladi: Farg‘onaga rus ko‘chmanchilarini joylashtirish uchun hali tayyor erlar mavjud emas. Viloyat ma’muriyatida ko‘chmanchilarni joylashtirish uchun zarur bo‘lgan moddiy mablag‘lar ham yo‘q edi. Shunday qilib, ularning vaqtincha yashashlari uchun qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim edi.

Shu orada, o‘lka bosh boshqarmasi Farg‘ona viloyati ma’muriyatiga erkin erlardan foydalanish masalasini jadallashtirishni topshiradi. Buning uchun zarur bo‘lsa, ko‘chmanchilarni joylashtirishga mablag‘ ajratilishi ham mumkinligi aytiladi. 1891-yil kuzida Farg‘ona viloyatida kelajakdagi koloniyalar uchun belgilangan erlarda tekshiruv ishlari olib borilgan. Andijon uyezd boshlig‘i va boshqa rahbarlar bilan birgalikda, Qo‘rg‘anboy volostidagi va Andijon uyezdidagi erlar ko‘zdan kechiriladi. Bu erlarda haqiqatan ham maydonlar borligi aniqlangan bo‘lsa-da, rus ko‘chmanchilarini joylashtirish uchun ular yaroqsiz deb topilgan. Sabab sifatida sug‘orish ariqlarining vayron bo‘lib ketganligi, hosildorlikning pastligi va doimiy ocharchilik ko‘rsatilgan.

Yerlarning qayta sug‘orilishi uchun katta miqdorda mablag‘, ko‘p vaqt va ko‘plab ishchi kuchi talab qilingan. Masalan, Qo‘rg‘anboy volostidagi erlarni qayta sug‘orish uchun ancha katta mehnat va vaqt kerak edi. Shu sababli bu erlarda rus ko‘chmanchilarini joylashtirish va undan foydalanish imkonsiz edi. Shu erlardan foydalanish masalasi 1880-yilda ham ko‘tarilgan edi, ammo ularning sug‘orish tizimlari vayron bo‘lganligi uchun ular yana e’tiborsiz qoldirilgan. Masalan, Mirza Bo‘ston va Qo‘chqor-Otada 2-3 ta ariqlar vayron bo‘lib, ulardan foydalanish imkoni qolmagan edi. 1902-yil boshlarida Andijon shahridan 120 chaqirim uzoqlikdagi O‘zgan volostida yana bo‘sh davlat erlari haqida ma’lumot olinadi. Bu erlarni avval qirg‘izlar soliq ishlari vaqtida topshirgan edilar. Biroq erlarning umumiy maydoni 1½ ming desyatina bo‘lib, ular juda bo‘linib ketgan, kichik-kichik bo‘laklarga ajralgan edi.

Mavjud erlarning aksariyati bir-biridan uzoq masofada joylashgan edi va faqat ot-ulov bilan borish mumkin edi. Shuning uchun rus ko‘chmanchilarini joylashtirish uchun ular yaroqsiz deb topilgan. Shunday qilib, bu erlarda rus qishloqlarini barpo etish g‘oyasi yana bekor qilinadi. Yerlarni batafsil tekshirish uchun 1892-yil bahorida Andijon uyezdida maxsus komissiya tuziladi. Bu komissiya harbiy gubernator yordamchisi rahbarlik qiladi. Uning tarkibiga Andijon uyezdi boshlig‘i va Farg‘ona viloyati boshqarma a’zolari kiritildi. Ammo o‘sha vaqtda ham Qurganboy volostida va boshqa joylarda ko‘rilgan erlar rus ko‘chmanchilari uchun yaroqsiz deb topilgan.

Yqorida bayon qilingan muammolarga qaramasdan aholi ko‘chib kelishda davom etgan. Andijon uezdi ma’muriyati ko‘chib kelganlarni qulay joylarga joylashtirish ishlarida davom etgan. Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridan Andijon va O‘shga, u erdan esa Andijon uezdining Qurshob volostiga odamlar ko‘chib kela boshlaydi. Ayrim ko‘chmanchilar shu erda ishlab, asta-sekin o‘rnashib oladilar. Andijon va O‘sh shaharlari bo‘yicha ko‘chib kelishga ruxsat berilmagan bo‘lsa-da, Farg‘ona viloyatiga “ko‘ngilli” ko‘rinishida keluvchilar tobora ko‘payib, qulay joylarga joylashib olishga harakat qiladilar, hamda shu paytda viloyat hokimiyatidan er ajratib berishni so‘ray boshlaganlar.

1902-yil yozida Qurshob volosti hududida Ko‘chqor-Ota va Mirza arig‘lari boshlig‘i tomonidan ko‘rik o‘tkaziladi. Rus ko‘chmanchilari uchun joy tanlagan komissiya shu erda Qurshobda qishloq tashkil etishga qaror qilinadi. 1902-yil bahorida Qurshobga 22 oiladan iborat rus ko‘chmanchilari keladi. Ularga bug‘doy ekish uchun tog‘ yonbag‘ridagi bo‘sh erlar beriladi, kelgusida esa qishloq qurilishi uchun joy ajratilishi belgilanadi. Ular dastlab chodirlarda yashab, o‘zlari uchun er qazib, somonxonalar qurdilar. Shu tariqa, vaqtinchalik yashash joyi sifatida chorbog‘ va o‘tloqlardan foydalanib, asta-sekin o‘rnasha boshladilar.

1903-yil bahorida yana bir komissiya kelib, rus posyolkasi uchun Qurshob hududini ko‘zdan kechiradi. Ata va Mirza arig‘i erlari qishloq barpo etishga qulay deb topiladi. Komissiya posyolka uchun joy tanlashga kirishadi. Bu ishga 22 oiladan iborat ko‘chmanchilar vakillari taklif qilinadi. Komissiya qarori natijasida 125 xo‘jalikdan iborat qishloq tashkil etildi. Shart shunday qo‘yildiki, bu erda faqat rus dehqonlari, pravoslav nasroniylari, rezerv va iste’fodagi past unvonli harbiy xizmatchilar joylashishi mumkin edi. Har bir oilaga 10 desyatinadan er ajratiladi, shundan 1 desyatina hovli (bog‘, sabzavot, qurilish uchun) sifatida belgilanadi. Ushbu norma Sirdaryo viloyatidagi rus qishloqlarida allaqachon amal qilib kelayotgan edi. Bu ishlar sobiq harbiy gubernator general-leytenant Grodekov (hozirgi Turkiston general-gubernatori)ning yordamida amalga oshdi. Shu tariqa, viloyatning boshqa uezdlarida bo‘lgani kabi Farg‘ona viloyatida ham rus qishloqlari paydo bo‘ldi. Shunday qilib, 1903-yil yozida Farg‘ona viloyati Qurshob hududida birinchi rus posyolkasiga asos solindi. U “Pokrovskiy” deb nomlandi.

XULOSA

Yuqorida bayon qilingan mulohazalarni muxtasar qiladigan bo‘lsak, Rossiya imperiyasi ma’murlari Turkiston o‘lkasi, ayniqsa Farg‘ona viloyatiga aholini ko‘chirish amaliyoti orqali o‘z boshqaruv tuzilmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratganlar bundan tashqari, yangi sharoitga faqat o‘z vatanida nisbatan farovonlikda yashashni istaydigan, qat’iy xarakterli va axloqiy jihatdan barqaror bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi odamlar ko‘chirilgan va joylashtirilgan. O‘rta Osiyo mamlakatlariga ko‘chib keluvchilarning ma’lum qismining moddiy ta’minlanganligi yana shuning uchun ham zarur bo‘lganki, har bir oilaga belgilangan 100 rubldan iborat ko‘chirish nafaqasi yangi o‘troqlikni tashkil etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni qoplay olmagan. Mana shu sabablarga ko‘ra, mo‘ljallangan ishning muvaffaqiyatli bo‘lishi manfaatini ko‘zlab, avvalo xohlovchilarning ishonchliligi haqida ma’lumot to‘plash yangi joyga ko‘chib o‘tishi va ularning farovonligiga ishonch hosil qilish jihatlariga ustuvorlik sifatida qaralgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Касаткин А. Переселенческое дело в Ферганской области. К истории возникновения русских поселков в Ферганской области. (Ферганские областные ведемости. 1907 № 92, 95, 99). Туркестанский Сборник. Том 421, стр. 75-79. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ. 1908.

2. Дмоховский А. О колонизации Ферганы. (Туркестанские ведемости. 1889. № 20, 21). Туркестанский Сборник. Том 457, стр. 14-25. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ. 1908.

3. Розов А. На пути. По вопросу о колонизации края. (Туркестанские ведемости. 1884. № 38 и 39). Туркестанский Сборник. Том 451, стр. 36-43. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ. 1908.

4. Юферев В.Ю. Опыт определения нормы надела переселенцев в Туркестанском крае. (Вопросы колонизации. 1908. № 2). Туркестанский Сборник. Том 473, стр. 1-44. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ. 1908.

5. Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская, Самаркандская и Ферганская). Отчёт по служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. Спб., 1911. Туркестанский Сборник. Том 586, стр. 1-262. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ.